

## BUTIN-2-DIOL-1,4 OLISHI VA UNING XOSSALARI

Turg'unov Erxan  
Nizomiy nomidagi TDPU  
Kimyo fanlari doktori, professor  
tel: +99897-470-08-79

Nizamov Isomiddin G'iyos o'g'li  
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi  
Sodiqov Mansur Qaxxorovich  
TKTI Shahrishabz filiali dotsenti  
Iskandarova Munavvar Umar qizi,  
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

### Annotatsiya

Ushbu tezisda butin-2-diol-1,4 ning katalitik sintezi va uning murakkab efirlarini olish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

### Аннотация

В данном тезисе представлены данные по изучению катализитического синтеза бутин-2-диола-1,4 и получении его сложных эфиров.

### Annotation

This thesis presents data on the study of the catalytic synthesis of butin-2-diol-1,4 and the production of its esters.

**Kalit so'zlar:** atsetilen, spirt, organik sintez, katalizator, butin-2-diol-1,4.

**Ключевые слова:** ацетилен, спирт, органический синтез, катализатор, бутин-2-диол-1,4.


**Key words:** acetylene, alcohol, organic synthesis, catalyst, butyne-2-diol-1,4.

Alkin diollarining yuqori reaksiyon qobiliyatidan foydalangan holda ushu moddalardan turli xildagi murakkab efirlar olish va ularni sanoat sohasida turli sohalarida qo'llanilishini o'r ganish muhim ahamiyat kasb etadi. Alkin diollarining ichida butin-2-diol-1,4 ning xossalari va ishlatalish sohalarini alohida o'r in tutadi.

Shu sababli butindiolning turli xildagi murakkab efirlarini olinishi va efirlarining hosil bo'lish jarayonidagi reaksiya muhiti o'r ganilishi kimyoviy sintez jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari butindiol-1,4 ning murakkab efirlarining ishlatalish sohalarini o'r ganish va ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotda asetilen spirlari sinteziga oid malumotlar mavjud, lekin ularni kimyoviy xossalari, katalitik o'zgarishlari va ularni sintezi uchun katalitik sistemalar joriy qilish kam tadqiq qilingan.


Yuqoridagilarni e'tiborga olgan xolda butin-2-diol-1,4 ni laboratoriya da sintez qilindi. Chetdan keltirilayotgan va atsetilen spirlarini unumini yaxshilovchi katalizatorlar izlab topish, tayyorlash va ishlab chiqarishga joriy etish, ularning xossalari o'r ganish, ayniqsa katalizatorlarni chetdan keltirilayotgan maxsulotlar o'miga o'zimizning mahalliy maxsulotlaridan foydalaniib tayyorlash ijobiy natijalarga olib keladi. Shunga ko'ra biz ishda "Olimaliq kon-metallurgiya kombinasi" AJ Qolmaqirdan olingan mis-porfirli tuproq namunasidan foydalandik. Uning asosida olingan katalizatorning tarkibi: 1. Cu-20%; Fe-15,8%; Al-10,2%; Ti-7,35%; SiO<sub>2</sub>-46,65%. 2. Cu-50%; Fe-2%; Al-1,1%; Ti-0,25%; SiO<sub>2</sub>-46,65%. Bu sintez qilingan katalizotorlarni tuzilishi IQ, Rentgen taxlili yordamida o'r ganildi. Geterogen fazada asetilen va 30%li formalin bilan vertikal reaktorda tasirlashishi natijasida yuqori unim bilan prapargil spirti (18-26%) va qo'shimcha ravishda butin-2-diol-1,4 (14-38%) hosil bo'lishi o'r ganildi.



Shunday qilib sintez qilingan butin-2-diol-1,4 ning fizik-kimyoviy konstantalari adabiyotdagilarga to'g'ri keladi.

Keyingi navbatda diolni xossalarini o'rghanish maqsadida uni sirka kislotasi bilan tasirlashtirilib butindiol-1,4 diatsetati sintez qilindi va uning spektrlari o'rghanilib reaksiya natijasida ushbu efir hosil bo'lganligi tasdiqlandi. Ushbu efirni Хроматэк-Кристалл 9000 №: 2191517 apparati yordamida tozaligi, individualligi tasdiqlandi, xromoto-mass spektrlari olindi va aynan butin-2-diol-1,4 diatsetati hosil bo'lganligi tasdiqlandi.

Bundan tashqari ushbu hosil qilingan murakkab efirning tarkibini IQ fure spektrometr apparatida ham tekshirildi va natijada ushbu efir tuzilishiga xos bo'lgan yutilish chiziqlari uning funksional guruxlarini tasdiqlaydi. Reaksiya quydagi sxema asosida amalga oshadi:



Hozirda ushbu efirning qo'llanilish sohalari va amaliyotga tadbiqi o'rganilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тургунов, Э., Холмуродова, Л. Э., Джумагулов III. X. Катализическое галогенирование ацетиленовых моно- и диаминов. //Universum: химия и биология, (2018). (4 (46)), 16-23.
2. Содиков, М. К., Хужаназарова, С. Р. К., Тургунов Э. Синтез простых и сложных эфиров ацетиленовых спиртов. //Universum: химия и биология, (2021). (7-1 (85)), 85-90.
3. Nizamov, I., Toshpulatova, M., & Nizomov, Q. Understanding the Nobel prize. The winners of the Nobel prize in chemistry. //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, (2022). 2(12), 39-43.